

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX VA YURIDIK FAKULTETI

IJTIMOIIY-SIYOSIY FANLAR KAFEDRASI

SIYOSIY FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari**

2025-yil 4-5-aprel

Buxoro – 2025

Siyosiy fanlarning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Buxoro: «Durdona», 2025. – 438 b.

Mas'ul muharrir:

R.Jumayev – Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, professor

Tahrir hay'ati:

N.Jo'rayev – siyosiy fanlar doktori, professor,

I.Ergashov – siyosiy fanlar doktori, professor,

F.Muzaffarov – falsafa fanlari doktori, professor

Ushbu to'plamda siyosiy fanlarni dolzarb muammolari va jahon siyosati arxitekturasida kechayotgan o'zgarishlar, siyosat nazariyasi, siyosiy fanlarni o'qitishda zamonaviy tadqiqotlar, siyosiy madaniyat va mafkura, raqamli asrda axborot siyosati, xalqaro siyosiy tizimlar va munosabatlar, milliy xavfsizlik muammolari, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayoni hamda sifatli ta'limni tashkil etishda zamonaviy innovation texnologiyalardan foydalanishning siyosiy mohiyatiga bag'ishlangan ilmiy maqola va tezislar o'rin olgan.

Konferensiya materiallaridan siyosatshunoslar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor-o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Buxoro davlat universiteti, 2025.

© O'zbekiston Milliy universiteti, 2025.

© «Durdona» nashriyoti, 2025.

эканлигимизни ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Буни Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев кўп марта таъкидламоқда.

Халқимизда “Қўшни танланмайди, қўшнини Худо беради”, “Қўшнинг тинч – сен тинч” деган пурҳикмат мақоллар бор. Бу ҳаётий ҳақиқат асрлар мобайнида исботини топган. Бугун эса яна ҳам долзарблик касб этмоқда. Ҳозирги замон цивилизацияси талаблари нуқтаи назаридан қараганда Ўзбекистон ташқи-сиёсий фаолияти қўшни мамлакатлар билан дўстлик ва ҳамкорлик муносабатларини янада ривожлантириш сингари соф тинчликсевар сиёсатга асосланади. Давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёевнинг сиёсий қарашларида бу масала алоҳида мавқе касб этади.

Айтиш мумкинки, Афғонистондаги мавжуд беқарорлик, қуролли тўқнашувлар ва қон тўкишларнинг давом этаётганлиги бутун минтақа учун жиддий таҳдид туғдирмоқда. Айни пайтда турли террорчилик ҳаракатларининг кучайиб боришига, ислом радикализи таъсирининг ошиб боришига ва у қайсидир даражада халқаро терроризмнинг муҳим таянчига айланишига олиб келади. Зотан, бугун дунёда 500 дан ортиқ халқаро террористик ташкилотлари мавжуд бўлган бир пайтда, Афғонистондаги ҳодисалар уларга сабоқ бўлиши ва, ҳатто, зарур бўлиб қолганда Афғонистон уларнинг тажриба майдонига айланиши мумкин. Ана шу тарзда,

Биринчидан, Афғонистондаги қуролли тўқнашувлар, толибларнинг расмий ҳукумат билан ўзаро келишмовчилиги бутун инсоният истиқболини, XXI-асрдаги тақдирини хавф остида қолдиради. Тарихий тараққиётни барбод этади.

Иккинчидан, Афғон халқининг қарийиб ярим асрлик ўтмиши хунрезликлар, вайронагарчиликлар ва қурбонликлар тарихига айланмоқда. Халқ бундай пароканда ва таҳдидли ҳаётдан чарчаган кўп йиллик хунрезликлар оқибатида миллат генофонди жиддий равишда бузилди. Геноцид ҳодисаси юз берди. Қалби меҳр-мурувватдан мосуво, эзгуликни, яхшилик ва муҳаббатни ҳис қилолмайдиган, жаҳолат ва залолат туфайли ҳаёт моҳиятини англаш қобилиятини йўқотган оломон юзага келмоқда. Бундай пайтда фикрга қарши фикр, ғояга қарши ғоя, жаҳолатга қарши маърифат тамойилини ҳаётда жорий этиш, инсоннинг инсонлигини англаш ва ўзини ўзи қадриятга айлантириш сингари маънавий-руҳий қудратни уйғотиш тақозо этилмоқда. Бу нафақат Афғонистон расмий ҳукуматининг, балки, қатор нуфузли халқаро ташкилотларнинг, йирик давлатлар ва жамоат бирлашмаларининг амалий қўллаб-қувватлашини, инсонпарвар муносабатларини талаб этади.

F.E. Karimov – O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi Xalqaro munosabatlar kafedراس mudiri, s.f.d., professor

SAUDIYA ARABISTONI DINIY SIYOSATIDAGI BUGUNGI ISLOHOTLAR, TENDENSIYALAR VA ULARDAN KO'ZDA TUTILGAN MAQSADLAR

Saudiya Arabistoni valiahd shaxzoda Muhammad bin Salmon boshchiligida mamlakat diniy hayotida inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Qirol Abdulaziz

tomonidan boshlangan ammo Qirol Faysal va Xolidlar davrida ortga qaytgan Vahhobiylarning mamlakatdagi ta'sirini Muhammad bin Salmon susaytirishga harakat qilmoqda¹⁰¹.

Hozirgacha konservativ ulamolardan shahzodaga to'g'ridan-to'g'ri qarshi chiqqanlari tazyiqqa uchradi qolganlari esa islohotlarga hayrihoh ekanligini bildirdi. Vahhobiylikni chet elda yoyishga bo'lgan harakatlar ham to'xtatildi. Ommaviy axborot vositalarida mazkur jarayon reformatsiya va Saudiya o'zligini mustahkamlashga tashlangan dadil qadamlar deya baholanmoqda. Diniy polisiyaning vakolatlari cheklanishi ham ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Mazkur diniy islohotlar yosh mahalliy aholi tomonidan ko'proq qo'llab-quvvatlanmoqda. Ma'lumot uchun, Saudiya Arabistoni aholisining qariyb uchdan ikki qismi 35 yoshdan kichik yoshlar tashkil etadi¹⁰².

Baker institutiga ko'ra Muhammad bin Salmon sulola tomonidan nazorat qilinadigan tuzilmalarni tubdan o'zgartirmasdan, Saudiya Arabistonining xalqaro obro'sini oshirishdan manfaatdor. Ya'ni, islohotlar siyosiy tus olmasdan davlat strukturasida Saudlarning hokimiyatini yanada kuchaytirish asosiy maqsaddir. Ba'zi ekspertlar, mazkur munosabatni Vahhobiy islomchilarning chuqur konservativ tabiati bilan bog'liq deb ta'kidlashadi.

"Islohotlar umuman olganda hayratlanarli", deydi siyosatshunos professor Neytan Braun, Karnegi jamg'armasining Yaqin Sharq dasturining katta ilmiy xodimi. Shu bilan birga "Vahhobiylik harakat sifatida tugatildi, deyishga hali erta", - deydi Braun. Ammo, deya qo'shimcha qiladi u, "vahhobiylik va Saudiya milliy o'ziga xosligida dinning rolga kamroq e'tibor qaratilmoqda"¹⁰³.

Iqtisodiy, sport va ko'ngilochar sohalardagi yangiliklar bilan bir qatorda alohida ahamiyatga ega bo'lgan diniy sohadagi mazkur harakatlar o'rta istiqbolda, Muhammad bin Salmon hokimiyatining konsolidatsiyasini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ehtiyotkorlik bilan yuritilayotgan tashqi siyosat mamlakat ichidagi ultra-konservativ kuchlarning va qolaversa shialarning mamlakat tashqarisidan yordam olishlari ehtimolini minimallashtirishga qaratilgandir.

Deradikalizatsiyaga qaratilgan "Sakina" dasturi

"Sakina" arab tilidan "Tinchlik", "Sokinlik" degan ma'noga ega bo'lib, jamiyatda virtual radikallashuvni oldini olishga qaratilgan. Loyiha 11-sentyabr xurujlari va Ar-Riyod teraktlaridan keyin ekstremistik mafkura va zo'ravonliklarning tarqalishidan xavotirda bo'lgan saudiyalik bir guruh diniy ulamolar va faollar tomonidan 2003-yili boshlangan. Quyidagi xususiyatlar mazkur loyihani odatiy taribot yohud repressiv amaliyotlardan ajratib turadi. Jumladan:

- dastur doirasida islom ulamolari faoliyat yuritishdi. Ular internetni kuzatishadi hamda radikallashuv belgilari yoki ekstremistik mafkuraga qiziqish bildiruvchi foydalanuvchilar bilan muloqot o'rnatishadi;

- ulamolar diniy argumentlar va dalillardan foydalanib, Islomni mo'tadilroq talqin qilishga harakat qiladilar;

- ular, shuningdek, foydalanuvchilarga psixologik va ijtimoiy yordam taklif qiladilar va agar kerak bo'lsa, ularni boshqa dasturlar yoki organlarga yuboradilar;

¹⁰¹ Al-Rasheed, Madawi. *Muted Modernists: The Struggle over Divine Politics in Saudi Arabia*. Oxford University Press, 2015.

¹⁰² Kéchichian, Joseph A. *Legal and Political Reforms in Saudi Arabia*. Routledge, 2013.

¹⁰³ Brown, Nathan J. *"When Victory Is Not an Option: Islamist Movements in Arab Politics"*. Cornell University Press, 2012.

Ushbu chora-tadbirlar onlayn chora-tadbirlar deb ataladi.

Mazkur dastur doirasida onlayn radikallashuv va ekstremizmning sabablari, tendensiyalari va qonuniyatlari bo'yicha tadqiqot va tahlillar olib boriladi. Shuningdek, onlayn faoliyat va boshqa tadbirlarning samaradorligini nazorat qilinadi va baholanadi. Maxsus xulosalar asosida hisobot va tavsiyalar e'lon qilinadi. Ushbu chora-tadbirlar tadqiqot va baholash deb ataladi.

Loyiha doirasida din olimlari, o'qituvchilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, xavfsizlik xodimlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari kabi turli manfaatdor tomonlar uchun seminarlar, konferensiyalar va treninglar tashkil qilinadi. Loyiha onlayn radikallashuv va ekstremizmning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha ogohlikni oshirish va zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, loyiha boshqa mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan ham hamkorlik qiladi. Ushbu chora-tadbirlar salohiyatni oshirish va tarmoq yaratish deb ataladi.

2008-yili "Sakina" Saudiya Arabistoni Islom ishlari vazirligi tomonidan rasman tan olingan va qo'llab-quvvatlangan mustaqil, nodavlat tashkilotga aylandi. O'sha yili axborot xavfsizligi to'g'risidagi yangi qonun qabul qilindi. Unda ekstremistik yoki radikal materiallarni Internetda tarqatishda ishtirok etgan har bir kishi uchun qattiq jazo belgilandi.

2011-yili esa "Sakina" dasturi o'z faoliyatini ekstremizmning xavf-xatarlari va mo'tadillikning ahamiyati haqida xabardorlikni oshirish uchun maktablar, masjidlar va qamoqxonalarga tashrif buyurish kabi offlayn tadbirlarni o'z ichiga olgan holda kengaytirdi. Shuningdek, ko'ngillilar va olimlarni radikal oqimlarga qarshi kurashish, radikallashuvga moyil bo'lganlarga psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida seminarlar, treninglar va konferensiyalar tashkil etildi.

2014 yilda esa "Sakina" ilohiyot, fiqh, tarix va axloq kabi islom bilan boliq turli mavzular bo'yicha ma'lumot va manbalar taqdim etuvchi veb-sayt ishlab chiqdi. Veb-saytda, shuningdek, zo'ravonlikdan voz kechgan va tinch-totuv yashashni qo'llab-quvvatlagan sobiq ekstremistlarning guvohliklari mavjud. Veb-sayt kengroq auditoriyani qamrab olishga va konstruktiv muloqot va munozaralar uchun platforma taklif qilishga qaratilgan.

Shuningdek, loyiha bilan sobiq ekstremistik e'tiqodlaridan voz kechgan ko'ngillilar ham ishlaydi. Bu shaxslarning aksariyati ekstremistlar emas, balki Islomda nimalar joiz ekanligi haqida savollari bor va o'z savollariga soha mutaxassislaridan javob olishni istagan odamlar edi.

Tarmoqda dastlabki muloqot o'rnatilgandan so'ng, "Sakina" xodimi odatda ularga shaxsiy chat xonasiga ko'chib o'tishni taklif qiladi. Ushbu onlayn suhbatlar ham real vaqtda, ham postlar shaklida bo'lib o'tadi. Ikkinchi holda, odatda suhbatdosh savol beradi, keyin esa "Sakina" hodimi javob beradi. Ushbu suhbatlar bir necha soat davom etishi mumkin. Ammo ba'zi foydalanuvchilar ushbu xizmatga bir necha oy davomida davomli murojaat qilishadi. Muloqot stenogrammasi keyin boshqalar o'qishi uchun internetga joylashtiriladi. Bu dasturning qamrov imkoniyatlarini oshiradi.

Natijalar. Radikallashuv va siyosiy zo'ravonlikni o'rganish bo'yicha xalqaro markaz hisobotiga ko'ra, "Sakina" loyihasi ekstremistik qarashlar yoki shunga o'xshash g'oyalarga hamfikirligini bildirgan shaxslar bilan 3000 dan ortiq onlayn

muloqotlar o'tkazgan va ulardan 1500 nafarini terrorchilar safiga qo'shilishdan muvaffaqiyatli qaytargan.

Dastur amalga tadbqiq etilganidan ko'p o'tmay umidli natijalar bera boshladi. Saudiya rasmiylari muvaffaqiyat darajasi 80 dan 90 foizgacha bo'lganini da'vo qilmoqda. Bundan tashqari, 2007-yil noyabr oyida shahzoda Muhammad bin Nayif atigi 35 ta takroriy jinoyat sodir etish holatlari qayd etilganini ta'kidladi - bu ikki foizdan kam ko'rsatkichga teng. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki yot g'oyalar ta'siriga tushib qolgan fuqarolarning fikrini o'zgartirish hamda takroriy jinoyat sodir etishining oldini olish murakkab vazifa ekanligi hisobga olinsa, yuqoridagi natija dasturning muvaffaqiyatidan darak beradi.

Virtual suhbat xonalaridagi sessiyalar, odamlarni o'z e'tiqodlari haqida munozaralarga jalb qilish orqali yolg'onlarni ko'rsatishga va internet foydalanuvchilarga Islom haqidagi "noto'g'ri" tushunchalardan voz kechishga yordam berishga intiladi. Internetning ommabopligi hamda ekstremistik mafkuralarni tarqatishdagi markaziy o'rni Saudiya Arabistonining "Sakina" loyihasiga xalqaro qiziqishni uyg'otdi.

Saudiya Arabistoni diniy siyosatining istiqbollari

Saudiya Arabistonidagi diniy yetakchilar qirolning mamlakat rahbari sifatidagi hokimiyatini tan olganlaridan keyin unga qarshi chiqish mumkin emasligiga e'tiqodlari tufayli muxolifat harakatlarga rahbarlik qilishdan chetlanadilar. Ular muxolifatga maslahat berishlari mumkin bo'lsa-da, siyosatni to'g'ridan-to'g'ri rad etish radikal xususiyat kasb etishi va xavfli ekanligini bilishadi. Shu sababli ulardan katta xavf kutilmaydi.

Diniy muassasa, ayollarga avtomobil haydashga ruxsat berish kabi qarorlarni ma'qullashidan xulosa qilish mumkinki, ular davlat siyosatiga moslashmoqdalar. Davlat maqsadlari uchungina faoliyat yuritadigan din vakillari o'z martabalarida ko'tarilib, shunday diniy yetakchilar davlat tuzilmalarida ko'payganligi buning dalilidir. Ko'pgina islohotlar uzoq strategiyani bir bo'lagi bo'lmay, balki ish jarayonida qabul qilinayotganligi sababli, ular katta ehtimol bilan bekor qilinishi mumkin. Ezgulikni targ'ib qilish va illatlarning oldini olish qo'mitasi kabi institutlar yana obro' qozonishi va vahobiylilikning turli unsurlari tiklanishi mumkin. Ochiq qarama-qarshilikning yo'qligi markazlashuvning kuchayishi tufayli elita hohishiga ko'ra islohotlar yana eski holatiga qaytishi mumkin.

Barqaror islohotlar mamlakat ichida va xalqaro miqyosda kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Xalqaro miqyosda qirollik diniy faoliyati ortidagi siyosiy motivlar tufayli Islom olamida yumshoq kuchini yo'qotishi mumkin. Mamlakatda turli guruhlar, jumladan, san'atkorlar va diniy arboblarni o'rtasida keskin bo'linish ya'ni jamiyatdan ajralib qolish kuzatilishi mumkin, bu esa kam bo'lsada hukumatdan norozilikka yoki rasmiy diniy ta'limotdan uzoqlashishga olib keladi.

Siyosiy islohotlarsiz liberallashtirish keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin, chunki ba'zi guruhlar o'zlarini chetlashtirilgan his qilishlari hamda davlat manfaatlaridan ko'ra G'arb manfaatlarini ustuvor deb bilishlari mumkin. Ushbu qarama-qarshi orzudagi toifalarni boshqarish hozirda rahbariyatdan ko'proq nozik siyosiy boshqaruvni talab qiladi.

MUNDARIJA

So'z boshi	3
1-SHO'BA: SIYOSAT NAZARIYASI VA FALSAFASI, SIYOSATSHUNOSLIK TARIXI VA METODOLOGIYASI	5
I.N. Islamov. O'ZBEKISTONDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALAR	5
Ф.Д. Музаффаров. ИМОМ ҒАЗЗОЛИЙНИНГ СИЁСАТ ФАЛСАҒАСИ	9
R.U. Ernazarov. TEMUR TUZUKLARIDA ADOLAT VA SADOQAT SIYOSATINING USTUVORLIGI	12
С.С. Раупов. НИЗОМУЛМУЛК ВА ИЖТИМОЙ АДОЛАТ МУАММОЛАРИ	15
И.Х. Шоев. НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНСКИМ ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРСТВОМ В ПОЛИТИКЕ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ.	19
N.S. Rizayev. UCHINCHI RENESSANS VA UNDA BUXORO JADIDLARI IJTIMOY – SIYOSIY POZITSIYASINING O'RNI	23
Sh. N. Rajabov. "SIYOSATNOMA" ASARINING TARIXIY, SIYOSIY HAMDA BADIY AHAMIYATI	26
N.H. Rahmatilloev. ROSSIYA IMPERIYASI BOSQINI ARAFASIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI SIYOSIY VAZIYATGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR	30
J.M. Axmedov. XALQ DIPLOMATIYASI TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATIGA OID YONDASHUVLAR	33
O.Алиева. МАКИАВЕЛЛИ ВА МАКИАВЕЛЛИЗМ	38
Sh.A. Akbarov. SIYOSAT NAZARIYASI VA FALSAFASINING RIVOJLANISH TARIXI VA ZAMONAVIY METODOLOGIYALARI	41
N.T. Nutfullayeva. QADIMGI SHARQDA ILK SIYOSIY TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI	45
2-SHO'BA: SIYOSIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR	49
H.Қ. Жўраев. Тараққиётнинг ҳозирги босқичида сиёсий фанлар муаммоси	49
I. Ergashev. O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA SIYOSIY FANLARNI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	55
A.P. Seitov, K.B. Izzatulloeva. METHODS OF RESEARCHING POPULATION TRUST TO THE AUTHORITIES IN UZBEKISTAN	58
N. Dexkanov. SIYOSIY MENEJMENT – JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI	61
С.Ш. Саидов. СИЁСИЙ ФАНЛАР ТАДҚИҚОТИДА АКАДЕМИК ЭРКИНЛИК MASALASI	64
R.G'. Jumayev. RAQAMLI SIYOSATSHUNOSLIK: TARAQQIYOT, AFZALLIKLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	69
Д.В. Рахимбаева. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА МИЛЛИЙ ДИПЛОМАТ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ	75
A. Q. Xamdorov. ZAMONAVIY SIYOSIY NAZARIYALAR	77
I.E. Erkinov. RAQAMLI SIYOSIY ISHTIROKNI JORIY ETILISHI VA TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI	81
B.M. Yalgashev. PARTOLOGIYA SIYOSIY FANLARNING YANGI SOHASI SIFATIDA	85
J.T. Ochilov. SAMARALI DAVLAT BOSHQARUV JARAYONIDA SIYOSIY YETAKCHINING IMIDJI	88
A.N. Narkulov. HARBIY KADRLARNI TAYYORLASHDA HARBIY SIYOSATSHUNOSLIK FANINING AHAMIYATI VA ZARURIYATI	92
M.D. To'rayev. SIYOSIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMO, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR	96

3-SHO'BA: DAVLAT BOSHQARUVI VA SIYOSIY INSTITUTLAR, GLOBAL JARAYONLAR VA TEKNOLOGIYALAR	100
E.S. Sultanova. SIYOSIY TEKNOLOGIYALAR SIYOSAT SAN'ATI SIFATIDA	100
H.Қ. Жўраев. ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИНИНГ УМУМПЛАНАТАР ТАМОЙИЛЛАРИ	104
F.E. Karimov. SAUDIYA ARABISTONI DINIY SIYOSATIDAGI BUGUNGI ISLOHOTLAR, TENDENSIYALAR VA ULARDAN KO'ZDA TUTILGAN MAQSADLAR.....	108
N. Dexkanov. SAYLOV JARAYONLARIDA IMIJMEYKING TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI.....	112
N. Qarshiyev. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJIDA SIYOSIY PARTIYALARNING AHAMIYATI.....	116
A.И. Хўжаев. СИЁСИЙ БОШҚАРУВДА СИЁСИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ.....	119
O.G'. Eshdavlatov. GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA SIYOSIY INSTITUTLARNING YOSHLAR IJTIMOIIY MOSLASHUVIDAGI O'RNI	122
Ж.А. Сабурова. ПОЛИТИКА ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И СТРАТЕГИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ	125
N.Q. Abulsaidov. "SUD TIZIMI" TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TALQINI.....	130
J.F. Yunusov. DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PREZIDENTLIK INSTITUTINING ROLI.....	133
R.M.G'afurov. Prezidentlik instituti tushunchasi va uning mazmun mohiyati	137
Q.Q. G'afurov. NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI BO'YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	141
C.M. Кобулова. ЦИФРОВИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	146
Z. Namozova. MA'NAVIY TAHDIDBARDOSH YOSHLARNI TARBIYALASH MASALALARI ...	149
N.D. Mansurova. BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI VA GENDER TENGLIK	152
J.U. Hamidova. ZAMONAVIY TURIZM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV SHAKLLARI VA ULARNING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK MOHIYATI.....	155
D.U. Botirov. Siyosiy partiya – davlat hukumatining muhim bo'g'ini.....	160
J.T. Ochilov. Samarali davlat boshqaruv jarayonida siyosiy yetakchining imiji	163

4-SHO'BA: SIYOSIY MADANIYAT VA MAFKURA, RAQAMLI ASRDA AXBOROT VA MEDIA SIYOSATI.....	167
F.X. Sultonov. SIYOSIY TEKNOLOGIYALARDA AXBOROT MAKONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI.....	167
A.C. Тураев. ЗАМОНАВИЙ СИЁСИЙ МАФКУРАЛАР ТАДҚИҚИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ.....	170
S.X. Xudaynazarov. Ekologik barqarorlikni ta'minlashda qadriyatlarni o'rni	173
I.Sh. Uzoqov. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIKNI SHAKLLANTIRISH YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINING RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA.....	177
A.K. Mirkamilov. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI ISHTIROKI.....	180
J.E. Aliyev. O'ZBEKISTONDA AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI MILLIY KONTENT YARATISH ISTIQBOLLARI.....	183
N.O'. Shukurov. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI SIYOSAT TA'LIM TIZIMI RIVOJINING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	187
S.S. Abduraxmanov. MAHALLIY KENGASHLAR HAMDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SIYOSIY-HUQUQIY JIHATLARI	192
D.D. Jumaniyazov. JAMOATCHILIKNI IJTIMOIIY-SIYOSIY AXBOROTLARDAN XABARDOR QILISHDA "KUN TARTIBINI BELGILASH" NAZARIYASI	196